



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Saodat Raxmonova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY KASBLARGA YO'NALTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotasiya: ushbu maqolada bugungi kunda o'quvchilarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, o'quvchi yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish zaruriyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: zamonaviy kasblar, frilans, ko'nikma, kasb-hunar, tenologiya, elektrotexnika.

Mehnat insonning hayotida muhim o'rin tutibgina qolmay, turmushni mehnatsiz, yaratuvchiliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni kasbga yo'naltirish va professional kadrlar tayyorlash sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda maktab o'quvchilarini 7-sinf dan boshlab kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish, yuqori sinflarda zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda yoshlar orasida o'zini-o'zi band qilish kabi mehnat shakllarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida joshlashtirilgan qaror loyihasi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimini joriy etish taklifi berilmoqda.



Unga ko'ra yangi tizimni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- umumiy o'rta ta'lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o'quvchilarni 7-sinfдан boshlab kasb-hunar egallash va o'zini o'zi band qilish orqali xizmatlar ko'rsatish (frilansing) yo'nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o'quvchilarning ma'lumotlari bazasini yaratish;

- 8-9-sinf o'quvchilariga dasturchi, dizayner, frilans kabi istiqbolli kasblar uchun poydevor bo'ladigan bilim va ko'nikmalar berish;

- o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida 9-sinfдан so'ng kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlari ni olib borish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10–11-sinf o'quvchilarini tanlov fanlari yo'nalishidagi (variantiv) o'quv reja asosida kasb-hunarga yo'naltirish shuningdek, kasb-hunar o'rgatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarda vaucher tizimi asosida yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga o'rgatish nazarda tutilmoqda.

Qayd etilishicha, o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimini joriy etish orqali o'quvchi yoshlarni maktab davridan kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, hych bo'lmaganda bitta kasb egallab chiqishlari uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aynan shuning uchun zamonaviy bilim olish bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib borish, oddiy qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarni kasb tanlashga, ularni ijodiy fikrlashga, yoki konstruksion buyumlardan materiallar yasash, oddiygina elektr chirog'i patronini o'rnatish, uydagi suv tarmoqlari tizimlari to'g'risida, shuningdek, oddiy yog'ochga ishlov berish, uy ro'zg'orda kichik ta'mirlash ishlari va hokazolar kabi hayotiy kasbiy ko'nikmalarni to'liq yetkazib berolmayotganligimiz hych kimga sir emas.

Biz yoshlar tarbiyasida "Texnologiya" faniga hayotiy ehtiyoj sifatida qarashimiz bilan o'quvchini uning kelajakdagi ma'lum bir kasb egasi bo'lishiga zamin yaratamiz. Aks holda o'sib kelayotgan yosh avlod o'z holiga tashlab qo'yilganda mehnatga bo'lgan tabiiy intilishi so'nadi va o'z mehnatidan qanoat hosil qilishni esa o'yin-kulgidan qidira boshlaydi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda ishlab chiqarishning o'rni katta jumladan ushbu masala "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ham keltirilgan.



Kasbni to'g'ri tanlash inson hayotida muhim hisoblanadi o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirish undanda muhim. Bu jarayonda o'qituvchi va ota-onaning o'rni beqiyos deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (O'zR 29.08.1997 y. 463-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan)
2. Tolipov U.K., Boltaboyev S.A., Razzokov D.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yunaltirish o'quv-metodika xonasi faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. T.: Uz PFITI; 2000 y.
3. Muslimov N. Mullaxmetov R. Kasb tanlashga yo'llash. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv ko'llanma. - T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2007.
4. Sh.S.Sharipov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova. Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007. 146 b.